

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Sholi poyasini qayta ishlash orqali betonlarga yengillik va g'ovaksimon xossa beradigan to'ldiruvchilar ishlab chiqarish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Sholi poyasining tarkibidagi asosiy komponentlar (sellüloza, kremniy oksidi va h.k.)ni aniqlash va ularning beton tarkibiga ta'siri baholanadi. Turli foizlarda qo'shilgan to'ldiruvchining betonning zichligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, suv shimuvchanligi va bosim kuchiga ta'siri tadqiq etiladi. Laboratoriya sharoitida beton aralashmalarining sinovlarini o'tkazish orqali eng yaxshi texnik va ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan tarkibi tanlab olinadi. Sholi poyasini ishqor yordamida kimyoviy ishlov berish natijasida undan bir necha turdagi oddiy va murakkab efirlar va boshqa mahsulotlar olinadi. Qayta ishlangan sholi poyasidan tayyorlangan betonlarning ekologik afzalliklari va ularni sanoat miqyosida joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari Uzsanoatqurilishmateriallari uyushmasi tashkilotlarida sinovlardan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Uzsanoatqurilishmateriallari uyushma xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Uzsanoatqurilishmateriallari uyushmasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.